

MIRZO ULUG'BEKNING ILMIY FAOLIYATI

Sh. Xusanova

Qo'qon universiteti Andijon filiali KUAF, PhD

Nabijonov Komiljon Nodirjon og'li

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Email: kamiljan071@gmail.com

[Tel: +998 88 272 09 06](tel:+998882720906)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo etilgan me'moriy obidalar, ularning tarixiy, ilmiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, bu inshootlarning Temuriylar davrida O'rta Osiyo me'morchiligi rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Samarqand, Buxoro, Mirzo Ulug'bek, me'moriy obidalar, madrasa, O'rta Osiyo.

Аннотация: В данной статье рассматриваются архитектурные памятники, возведённые Мирзо Улугбеком, их историческое, научное и культурное значение, а также вклад этих сооружений в развитие архитектуры Средней Азии в эпоху Тимуридов.

Ключевые слова: Самарканд, Бухара, Мирзо Улугбек, архитектурные памятники, мадраса, Средняя Азия.

Annotation: This article discusses the architectural monuments built by Mirzo Ulugbek their historical, scientific, and cultural significance, as well as their contribution to the development of Central Asian architecture during the Timurid period.

Keywords: Samarkand, Bukhara, Mirzo Ulugbek, Architectural monuments, Madrasa, Central Asia

Mirzo Ulug'bek Temuriylar sulolasining vakili bo'lib, to'liq ismi- Muhammad Tarag'ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Ko'ragon, mo'g'ulcha xonning kuyovi degan ma'noni anglatadi (1394-yil 22-mart, Sultoniya– 1449-yil 27-oktabr). U Temuriylar davlatining hukmdori, davlat arbobi, buyuk astronom(yulduzshunos) va matematik olimdir. Otasi Shohrux Mirzo davrida Movarounnahr hokimi va otasi vafot etgach butun Temuriylar imperiyasi sultoni (1447—1449) bo'ldi. Ulug'bek trigonometriya va sferik geometriya kabi astronomiya bilan bog'liq matematika sohasidagi ishlari, shuningdek, san'at va intellektual faoliyatga umumiy qiziqishlari bilan ajralib turardi. U besh tilni-turkiy, arab, fors, mo'g'ul va oz miqdorda xitoy tillarini bilgan, deb taxmin qilinadi. Ulug'bek hukmronligi davrida (avval hokim, keyin to'g'ridan-to'g'ri) uning e'tibori va homiyligi tufayli temuriylar uyg'onish davrining madaniy cho'qqisiga erishdi.


Samarqand hokimligi, otasi Shohrux Mirzo tomonidan Ulug'bekga berilgan. Dastlab uning hukmronligi Samarqand, Buxoro, Nasaf viloyatlari bilan cheklangan. 1412-yil Mavronnahr va Turkiston hokimiyati 18 yoshli Ulug'bek qo'lga o'tgan. 40 yil davomida

mamlakatni boshqargan. Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan me'moriy obidalar nafaqat o'z davrining san'at yodgorliklari, balki ilm-fan markazlari sifatida ham tarixda muhim o'rin egallaydi. Ular O'rta Osiyoda ilm, marifat va me'morchilik uyg'unligini ifodalab, keyingi asrlar uchun bebaho ma'daniy meros bo'lib xizmat qilmoqda.

Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand gullab-yashnadi. Uning farmoyishi bilan 1417-yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar barpo etildi. Marv shahrida xayriya muassasalari qurildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli qurilishlari nihoyasiga yetkazildi. Shuningdek, Ulug'bek karvonsaroy, tim, chorsu, hammom kabi talay jamoat binolari ham barpo ettirgan. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi 1417–1420-yillarda Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqanddagi mashhur Registon maydonida qurilgan. Madrasa — o'z davrining eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo'lgan. Madrasa ikki qavatli bo'lib, unda 100 dan ortiq hujralar mavjud edi. U yerdan astronomiya, matematika, falsafa, fiqh va boshqa fanlar o'qitilgan. Peshtoqdagi koshin yozuvlarida «Ilm o'rganish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir» degan hadis bitilgan bo'lib, bu Ulug'bekning ilmga bo'lgan chuqur hurmatini ifodalaydi. Buxorodagi Ulug'bek madrasasi Buxoro shahridagi madrasa ham 1417–1420-yillar orasida qurilgan. Bu madrasa ham Samarqanddagi singari ilm markazi sifatida faoliyat yuritgan. Me'moriy jihatdan bino peshtoqi, gumbazlari va koshin bezaklari bilan ajralib turadi. Madrasa peshtogida «Ilmni o'rganish saodatga eltuvchi yo'ldir» degan yozuv bitilgan. Bu bino orqali Mirzo Ulug'bek ilm-marifatni O'rta Osiyoning barcha shaharlariga yoyishga intilgan. G'ijduvondagi Ulug'bek madrasasi 1433-yilda G'ijduvon shahrida qurilgan bu madrasa Mirzo Ulug'bekning so'nggi me'moriy inshootlaridan biridir. G'ijduvon madrasasi Ulug'bek ilmiy maktabining viloyatdagi filiali bo'lib xizmat qilgan. Bu yerdan ko'plab olimlar va shogirdlar yetishib chiqqan. Bino me'moriy jihatdan sodda, ammo ilmiy maqsadga yo'naltirilgan tarzda bunyod etilgan.

Samarqanddagi XV asr me'morchiligining nodir namunalaridan biri Ulug'bek rasadxonasidir. Bu inshoot Ulug'bek farmoyishi bilan 1424—1429-yillarda Ko'hak tepaligida bunyod etilgan. Samarqand rasadxonasi Mirzo Ulug'bekning eng muhim me'moriy va ilmiy obidasidir. Rasadxona uch qavatli doira shaklida bunyod etilgan. Uning markazida ulkan sekstant joylashgan bo'lib, bu asbob yordamida yulduzlarning joylashuvi aniqlangan. Rasadxona ilm va me'morchilik uyg'unligining yorqin namunasi bo'lib, o'sha davrda dunyoda tengi yo'q inshoot edi.

Mirzo Ulug'bek o'z bobosi Amir Temur qurdirgan Go'ri Amir maqbarasasini qayta tamirlab, uni Temuriylar sulolasining dafn joyi sifatida saqlab qolgan. U mazkur maqbaraning peshtoqlari, gumbazlari va ichki naqshlarini bezash ishlariga homiylik qilgan. Shuningdek, maqbaraning ichki bezaklari orasida Quron oyatlari va ilmiy ramzlar uyg'un holda ishlatilgan. Mirzo Ulug'bek bundan tashqari ko'pgina jamoat binolari - karvonsaroylar, timlar, chorsular va hammomlar ham qurdirgan. Karvon-saroylardan eng kattasi Registonda hozirgi Tillakori madrasasi o'rnida joylashgan bo'lib, "karvonsaroyi Mirzoyi" nomi bilan mashhur bo'lgan.



Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati asosan astronomiya, matematika va ta‘lim sohalarida namoyon bo‘lgan. U Samarqandda qurdirgan mashhur rasadxona orqali dunyo astronomiyasi tarixida chuqur iz qoldirgan. Rasadxonada olib borilgan kuzatishlar natijasida u «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» nomli yirik asarni yaratgan. Bu asarda 1018 ta yulduzning koordinatalari, sayyoralar harakati va ularning joylashuvi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan. Ulug‘bek rahbarligida Samarqandda o‘sha davrning eng ilg‘or ilmiy maktabi shakllangan. U yerda Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlar faoliyat yuritgan. Bu maktab nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun musulmon olamida ilmiy markaz sifatida tan olingan. Rasadxona o‘z davrining eng mukammal ilmiy inshooti bo‘lgan. Uning asosiy asbobi – ulkan kvadrant (sestant) bo‘lib, uning yordamida yulduzlarning balandligi va joylashuvi aniqlangan. Ushbu asbob yordamida yil uzunligi 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniya deb aniqlangan bo‘lib, bu hozirgi hisobdan atiga 1 daqiqa 2 soniyaga farq qiladi. Ulug‘bek trigonometriya, sinus va tangens jadvallarini ishlab chiqqan. U 1 darajalik burchak sinusini 8 ta o‘nlik raqam aniqligida hisoblagan. Uning matematik ishlanmalari keyinchalik G‘arb olimlari tomonidan ham o‘rganilgan.

Ulug‘bek ilmiy faoliyat bilan bir qatorda, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham katta e‘tibor bergan. U ilm-fan taraqqiyoti bilan birga shaharsozlik, savdo va madaniyatni rivojlantirishga intilgan. Uning davrida Samarqand va Buxoro kabi shaharlar Markaziy Osiyoning yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylangan. Mirzo Ulug‘bek qurdirgan madrasalarda nafaqat diniy fanlar, balki matematika, astronomiya, geometriya, mantiq, falsafa va tarix kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Bu o‘rta asrlarda ilmga berilgan yuksak e‘tiborning ifodasidir.

Mirzo Ulug‘bekning siyosiy faoliyati ham diqqatga sazovordir. U o‘z davrida ilmni davlat boshqaruvida muhim o‘rin tutuvchi kuch sifatida qadrlagan. Uning siyosiy qarashlarida adolat, ma‘rifat va insonparvarlik tamoyillari ustuvor bo‘lgan.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Uning asarlari, rasadxonasi va ilmiy maktabi O‘zbekiston xalqining faxri, jahon madaniyatining bebaho boyligi hisoblanadi.

Xulosa: Mirzo Ulug‘bek o‘z davrining eng yirik davlat arbobi, olimi va ma‘rifatparvar hukmdori sifatida jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan. U nafaqat siyosiy sohada, balki ilm-fan, madaniyat va me‘morchilikda ham yuksak yutuqlarga erishgan. Ulug‘bek tomonidan Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda qurilgan madrasalar o‘sha davrda ilm maskanlari sifatida butun Sharqda shuhrat qozongan. Ayniqsa, G‘ijduvondagi madrasa viloyat miqyosida ilmiy faoliyat markazi bo‘lib xizmat qilgan. Samarqanddagi rasadxona esa Ulug‘bekning eng ulkan ilmiy merosi bo‘lib, unda olib borilgan kuzatishlar natijasida «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» asari yaratilgan. Bu asar o‘rta asr astronomiyasining eng muhim yodgorligi sanaladi va undagi ilmiy aniqlik darajasi bugungi kunda ham e‘tirof etiladi. Ulug‘bek trigonometriya, sinus va tangens jadvallari, vaqt o‘lchovlari kabi ko‘plab sohalarida ilg‘or natijalarga erishgan. Shuningdek, u Go‘ri Amir maqbarasini qayta tiklab, Temuriylar sulolasining tarixiy xotirasini saqlab qolishga hissa qo‘shgan. Mirzo Ulug‘bek qurdirgan karvonsaroylar, timlar va hammomlar esa shaharsozlik

madaniyatining yuksak namunasi bo'lib, iqtisodiy hayot taraqqiyotiga xizmat qilgan. Ulug'bekning siyosiy qarashlari adolat, ma'rifat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan edi. U ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e'tirof etgan. Shu bois uning davrida Samarqand va Buxoro butun musulmon olamining yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylangan.

Bugungi kunda Mirzo Ulug'bek nomi nafaqat O'zbekiston, balki butun insoniyat madaniyatining faxrli sahifasiga aylangan. Uning ilmiy va ma'naviy merosi, yaratgan inshootlari va asarlari hozirgi avlodni ham ilmga, adolatga va ma'rifatga chorlab turadi.

FOYDALANILGAN ADADABIYOTLAR

1. Bulatov M.S. "Me'morchilik tarixi", – Toshkent, 1987.
2. Qodirov B. "Mirzo Ulug'bek me'moriy merosi" – Samarqand, 2019.
3. To'xtiyev B., Abdullayeva X. Mirzo Ulugpbek va uning ilmiy maktabi.- Toshkent. Fan nashriyot, 2018.
4. Xaitov G. – "Ulug'bek madrasalari va ularning ilmiy ahamiyati" – Zenodo, 2024.

